



2018 yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **94,0 trln.so'mni**, o'sish sur'ati - **110,7 % ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **105,8 % ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **33,0 % ni** tashkil etdi
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **31,1 % ni** tashkil etdi
- Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini soni - **52802 birlikni** tashkil etadi

Dastlabki ma'lumotlar bo'iyicha 2018 yilning yanvar-iyun oylarida respublika korxonalarini tomonidan 94,0 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,7 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 7,3 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishiga qo'shgan hissasi 5,7 punkt), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 32,8 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 4,6 punkt), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalashning 1,4 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 0,1 punkt) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 36,2 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 0,3 punkt) o'sishi hisoblanadi.

2018 yilning yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda.







Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2018 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,6 trln.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 16,6 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'iycha chaqiq tosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 1,6 martaga, kaolin - 1,8 martaga, gaz kondensati – 17,9 % ga va tabiiy gaz – 6,3 % ga oshgan. Shu bilan birga neft qazib olish hajmining 9,7 % ga va ko'mirning – 14,8 % ga kайunganligini kuzatish mumkin.

Yanvar-iyun oylarida tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


2017 yilda ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
1983,6	 <p>Ko'mir, ming t.</p>	1689,1	85,2
415,5	 <p>Neft, ming t.</p>	375,2	90,3
27601,5	 <p>Tabiiy gaz, mln.kub.m.</p>	29340,4	106,3
895,2	 <p>Gaz kondensati, ming t.</p>	1055,3	117,9

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 70,5 trln.so'mni va o'tgan yilga nisbatan 107,3 % o'sish sur'atini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 1,2 % ni (2017 yil yanvar- iyun oylarida - 2,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 28,0 % (19,5 %), o'rta-quyi texnologiyali - 31,5 % (25,9%) va quyi texnologiyali - 39,3 % (52,6 %) tashkil etdi.







Yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan traktor ishlab chiqarish 5,6 martaga, akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar – 28,2 % ga, avtomobil dvigatellari 22,9 % ga, yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilganlarsiz) – 18,4 % ga, dizel yoqilg'isi – 17,9 % ga, o'simlik yog'i (tozalangan) – 10,5 % ga, avtomobil benzini – 3,1 % ga va paxta tolasi – 1,4 % ga oshgan. Shu bilan birga avtobuslar, yuk avtomobillari va portlandsement mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

**Yanvar-iyun oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilgansiz), dona			
65930		78035	118,4 ↑
Yuk avtomobillari, dona			
2067		1550	75,0 ↓
Avtobuslar, dona			
389		269	69,2 ↓
Avtomobil dvigatellari, dona			
48721		59860	122,9 ↑
Paxta tolasi, ming t.			
483,6		490,5	101,4 ↑
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.			
110,2		121,7	110,5 ↑

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Tamaki mahsulotlari, mln. dona			
4786		4890	102,2 ↑
Avtomobil benzini, ming t.			
543,3		560,3	103,1 ↑
Dizel yoqilg'isi, ming t.			
472,5		557,2	117,9 ↑
Portlandsement, ming t.			
4198,7		3953,8	94,2 ↓
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t.			
5194,0		6659,2	128,2 ↑
Traktorlar, dona			
322		1799	5,6 m. ↑



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,0 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,5 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyun oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 % ga va gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmining – 1,0 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 955,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ni) tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 32,8 % ga, tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 73,9 % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning – 22,8 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning – 20,7 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 31,0 trln.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 5,8 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 33,0 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




2017 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 58,1 % dan 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 62,5 % ga oshishi kuzatilmoqda.


Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Toshkent shahri (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 17,3 % dan ulushini), Toshkent viloyati (16,4 %), Navoiy (11,4 %), Andijon (10,3 %), Qashqadaryo (6,9 %), Farg'ona (5,9 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2018 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda)




2018 yil yanvar-iyun oylarida hududlarning respublika sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
(respublikaning jami sanoat ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, foizda)



Shu bilan birga eng kam ulushi Surxondaryo (1,4 %), Jizzax(1,5 %), Sirdaryo (2,0 %), Namangan (2,3 %) va Xorazm (2,6 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.


Shuni ta'kidlash joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Surxondaryo (2017 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 129,9 % ga), Andijon (125,6 % ga), Xorazm (114,2 % ga), Toshkent (109,5 %), Qashqadaryo (109,4 % ga) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (109,7 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlandi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida respublikalar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Navoiy viloyatida (11112,7 ming so'm), Toshkent shahrida (6552,8 ming so'm), Toshkent (5372,3 ming so'm) va Andijon (3210,9 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (2868,3 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2018 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning hajmi va o'sish sur'atlari




Hududlar kesimida aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Surxondaryo (2017 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 127,2 % ga), Andijon (123,5 % ga) va Xorazm (112,5 % ga) viloyatlarida kuzatildi. Shu bilan birga, Samarqand (98,9%) va Navoiy (99,8%) viloyatlarida o'sishning past sur'atlari kuzatildi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,6 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 31,1 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Toshkent shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 68,0 %), Namangan (63,7 %), Jizzax (60,8 %), va Samarqand (52,4 %) viloyatlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Qoraqalpog'iston Respublikasida (13,7 %), Navoiy (12,9 %), Toshkent (17,8 %), Qashqadaryo (20,2 %) va Andijon (20,9 %) viloyatlarida kuzatildi.


2018 yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda respublikada 52,8 mingdan ortiq sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning 5753 tasi yangi sanoat korxonalari tashkil etadi. Ulardan qariyb 69 % Toshkent shahri, Toshkent, Farg'ona, Andijon, Samarqand va Namangan viloyatlariga to'g'ri keladi.

2018 yil 1 iyul holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik



**Davlat statistika qo'mitasining
Sanoat statistikasi boshqarmasi**

Nashr uchun mas'ul:

U.Elmuratov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-80-46